



MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG`RIKENGLIK TINCHLIK KAFOLATI

Yusubova Nozima Odiljon qizi

Farg`ona Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Bugun mana shunday xavfli - tahlikali, o`ta notinch bir davrda jahon moliyaviy inqirozi hali beri davom etayotgan bir paytda el-yurtimiz nimaiki natijalarni qo`lga kiritmasin, bularning barchasi yurtimizda tobora mustahkam bo`lib borayotgan tinchlik va osudalik, millatlar, dinlar va fuqarolararo totuvlik va ahillik bir-birimizga hurmat va ehtirom hisobidan desak, o`ylaymanki, hech qanday xato bo`lmaydi. Hozirgi kunda bag`rikenglik muammosi butun dunyoda dolzarb muammo sifatida tegishli xalqaro tashkilotlarda muhokama qilinmoqda. Chunonchi, YUNESKO bag`rikenglikni shakllantirish yo`lida muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Uning Parijdagi qarorgohida 1993-yili tolerantlik bo`linmasi tuzildi. Oradan ikki yil o`tib (1995-yil 16-noyabrda) YUNESKO Bosh Konferensiyasi „Deklaration of prinsip les on tolerance“ ni tasdiqladi. Bu hujjatni 185 ta davlat shu jumladan, O`zbekiston ham imzoladi. Deklaratsiyada milliy etnik va til guruhlariga nisbatan zo`ravonlik, yotsirash va kamsitishning yalpi avj olishiga qarshilik ko`rsatish lozimligi ta`kidlanadi. Bag`rikenglik xalqlar o`rtasida murosaga kelish yo`lini topish mojarolarni tinch yo`l bilan bartaraf etishning muhim sharti ekaligini keng jamoatchilik e`tirof etmoqda.

Kalit so`zlar: YUNESKO, bag`rikenglik, millat

Diniy bag`rikenglik va millatlararo totuvlik masalasi boshqa davrlarda bo`lgani kabi, O`zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlarning yangi bosqichida ham Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ustuvor yo`nalish sifatida e`tirof etib kelinmoqda. “O`zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglik sohasida o`z an`analariga doimo sodiq bo`lib, bu yo`ldan hech qachon og`ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o`rtasida o`zaro hurmat do`stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajai e`tibor qaratiladi. Bu bizning eng katta boyligimiz va uni ko`z qorachig`idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir” degan edi Prezidentimiz 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlis palatalariga qilgan Murojatnomasida.

Hammamizga ma`lumki, O`zbekiston Respublikasida 130 dan ortiq turli elat vakillari istiqomat qiladi. Ko`p millatli jamiyatda bag`rikenglik, o`zaro ishonch va hurmat - millatlararo hamjihatlikning poydevori, mamlakatdagi xalqlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni uyg`unlashtirishning harakatlantiruvchi kuchidir. Millat va elatning bag`rikengligi, o`zaro hurmati - jamiyat madaniyatilik darajasining ko`rsatkichi davlatdagi millatlararo totuvlikning asosi va shu bialn birga kelgusidagi muvaffaqiyatning rivojlanishning eng muhim shartidir. Bu borada yurtimizda millatlararo ahillik va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash, ma`naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish bo`yicha aniq maqsadga yo`naltirilgan chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 19-moddasida: „O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquqlari va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilnadi va ijtimoiy adolat prinsplariga mos bo'lishi shart”.¹

Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, dunyodagi barcha insonlarning yashash huquqi qonun bilan kafolatlanadi. Hattoki, u ashaddiy jinoyatchi bo'lsa ham. Har bir millat va elatning o'zligi, ma'naviy ruhiy dunyosi, olamga bo'lgan munosabati uning milliy qadriyatlarida o'zining yorqin ifodasini topadi. Bu borasa asrlar osha sayqal topgan o'ziga xos milliy qadriyatlarimiz mintaqa va dunyo xalqlari madaniyatiga o'zining ibratli ta'sirini o'rkazganini ta'kidlash zarur.

„Qudratimiz - birlik va hamjihatlikda” umumrespublika birligi shiori turli millat va elat, din va konfessiyalar vakillarining fikrlari ham, yo'nalishlari ham mushtarakligida ma'no kasb etadi. Milliy g'oya keng mazmunga ega. U millatlararo totuvlik va milliy, diniy bag'rikenglik g'oyalari bilan o'zaro uyg'un. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, milliy g'oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida baholi qudrat hissa qo'shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etadi.

Millatlararo totuvlik - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Ko'p millatlilik - O'zbekistonning boyligi degan g'oyaga asoslangan bu milliy siyosat modelini amalga oshirishda yurtboshimiz tashabbusi bilan tashlik etilgan bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab keng nishonlanayotgan 140 dan ortiq milliy - madaniy markazlar faoliyatini muovfiqlashtirib, ularga etnik qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va aholining turli qatlamlari orasida keng targ'ib qilib bo'yicha tashkiliy va uslubiy yordam ko'rsatib kelayotgan Respublika Baynalminal markazining alohida o'ziga xos o'rni bor.

Millatlararo hamjihatlikni, totuvlikni ta'minlashdan asosiy maqsad shuki, agar millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajavvuskor millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqolol g'oyasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olgan holda, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, xolisona hal qilinmoqda. Millatlar o'rtasida mozarolarga yo'l qo'ymaslik uchun, etnik siyosatda shaxs huquqlari himoya qilinishining ustuvor bo'lishining mamlakatlararo ziddiyatlari amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi bosh yo'limiz ekanligiga, bozor munosabatlarini iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mos kelishiga har bir millat madaniyati, tili, urf-odati va an'analari, madaniy merosini rivojlantirishiga alohida ahamiyat berilmoda. Har yili 16-noyabr kuni jahonda xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida nishonlanadi. Shu kuni 1995-yilda BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi iqtisoslashgan muassasasi YUNESKOga a'zo davlatlar „Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” ni qabul qilishdi. Ushbu hujjatga ko'ra, bag'rikenglik siyosiy-huquqiy, u inson huquqlari, plyuralizm va demokratiga ustuvorligi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, har bir inson o'z e'tiqodiga rioya qilishi va boshqalarning ham bunday huquqini tan olgan holda o'z qarashlarini o'zgalarga

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 19-modda.

majburiy singdirishga yo'l qo'ymasligi belgilangan. Zo'ravonlikka qarshi kurashish va bag'rikenglik g'oyalarini keng targ'ib qilish maqsadida YUNESKO hindistonlik rassom yozuvchi va diplomant hamda maskur tashkilotning yaxshi niyat elchisi bo'lgan Madanjid Singhi nomi bilan atalgan mukofotni joriy etdi. Mukofot 1995-yilda ta'sis etilgan bo'lib, u har 2 yilda bir marotaba zo'ravonlikka qarshi kurash va bag'rikenglikni targ'ib qilishda muhim hissa shaxslarga va samarali faoliyat olib borayotgan muassasalar hamda tashkilotlarga beriladi.

Umuman olganda, dunyoda milliy etnik munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bir paytda, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish va ularga zulm o'tkazish birinchi o'ringa chiqayotgan bir paytda O'zbekistondagi millatlararo va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash sohasida olib borilayotgan ishlarni hech mubolag'asiz yorqin namuna sifatida qabul qilish mumkin. O'zbekiston xalqlarining asrlar davomida shakllangan hayot yo'li jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotini ta'minlashda xalqlar va dinlararo bag'rikenglik mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Har bir insonning bag'rikengligi jamiyatdagi muvozanat va yaxlitlikka jamiyatning butun qobiliyatini to'la-to'kis namoyon qilishga va ma'naviylikning oltin qoidasi asosida „beg'alva muhit“ ga erishishga ko'maklashadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik - turli millatga mansub kishilarning tilini, dinini, turmush-tarzi, urf-odati va an'analarini, milliy madaniy merosini hurmat qilishni, ularni shani, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupov. SH. R. Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag'rikenglik. Toshkent.-2011.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.